

**BUXORO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**BUXORO VILOTATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024- YIL YANVAR-IYUN
(DASTLABKI MA'LUMOT)**


**Tel.: 65-223-80-42
www.buxstat.uz**

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra)


Bugungi kunda viloyatda 3 794 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 774 tasi faoliyat (ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 20,4 % i) Buxoro shahriga, 448 tasi (11,8 % i) G'ijduvon tumaniga, 339 tasi (8,9 % i) Jondor tumaniga, 337 tasi (8,9 % i) Kogon tumaniga, 324 tasi (8,5 % i) Romitan tumaniga, 293 tasi (7,7 % i) Vobkent tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalarda sanoat korxonalarining ulushi

Jami yangi tashkil etilgan



Vobkent	72
293	
Romitan	61
324	
Olot	53
183	
G'ijduvon	50
448	
Buxoro sh.	44
774	
Jondor	43
339	
Shofirkon	42
217	
Peshku	38
199	
Buxoro	36
267	
Kogon	26
337	
Qorako'l	25
187	
Kogon sh.	11
146	
Qorovulbozor	6
80	

● ● Faoliyat yuritayotgan




Yangi tashkil etilgan

Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 16 669,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tuman kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (343 854,0 ming so'm), Kogon tumani (12 064,0 ming so'm) hamda Kogon shahrida (8 455,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (8 128,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 15 703,4 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,2 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatida jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Qorovulbozor tumani (41,3 %), Buxoro shahri (12,0 %), G'ijduvon tumani (9,0 %), Kogon tumani (6,1 %) hamda Romitan (5,3 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi.



Shuningdek o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Kogon (110,8%), Qorako'l (108,8%), hamda Olot (107,8 %) tumanlarida kuzatildi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, shahar va tuman kesimida

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 152,4 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,9 % ga toʻgʻri keldi.



*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*




Buxoro	3,3 m.
0,1	
Buxoro sh.	2,4 m.
12,8	
Jondor	156,5
5,6	
Kogon	133,9
20,9	
Peshku	119,0
1,8	
Shofirkon	109,4
7,1	
Qorovulbozor	103,3
70,1	
Olot	102,1
14,5	
Gʻijduvon	85,0
6,0	
Romitan	60,3
6,5	
Kogon sh.	41,3
6,8	
Qorakoʻl	11,8
0,2	
Vobkent	0,0
0,0	

mlrd. soʻmda


FHI, % da

yanvar-iyun oylarida yirik korxonalar bo'yicha

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	381,0	657,4	276,4
Gips, t.	435 849,0	75 366,3	- 360 482,7
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. s'om	96 951,0	80 100,4	-16 850,6

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat shahar va tuman kesimida




Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15 703,4 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 94,2 % ni tashkil etdi.


Buxoro o	132,6
303,5	
Buxoro sh.	120,8
1 525,9	
Kogon	110,3
994,6	
Qorako’l	109,1
712,1	
Olot	108,2
279,3	
Shofirkon	107,3
489,8	
Romitan	107,3
878,5	
Peshku	107,2
444,5	
Vobkent	107,2
590,2	
Jondor	106,8
690,0	
G’ijduvon	105,8
1 489,3	
Kogon sh.	99,8
541,8	
Qorovulbozor	97,6
6 763,9	

mlrd. so’m da


FHI, % da



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,0 % (2,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 49,6 % (53,7 %), quyi texnologiyali 47,4 % (43,5 %) ni tashkil etgan.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 39,4 % (2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 105,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 24,4 % (2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 109,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,9 % (2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 103,2 %) ni tashkil etdi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,8 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,7 % (2023- yilning yanvar-iyun oyilarga nisbatan fizik hajm indeksi 116,0 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 525,9 ming tonna avtomobil benzini (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 10,6 % ga ko'paygan), 2 200,7 ming litr aroq mahsulotlari (9,8 % ga pasaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Mazut, ming t.	30,4	43,2	12,8
O'simlik yog'i (tozalangan), t	10 558,6	7 000,3	- 3 558,3
Paxta tolasi, t	40 046,0	36 476,0	- 3 570,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	9 457,1	15 359,1	5 902,0
Paxta chigiti, t.	66 782,0	60 687,0	- 6 095,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,4 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 120,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 58,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 114,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 796,9 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,5 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,4 % ni tashkil va ishlab chiqarish hajmi 2 922,7 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 125,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 224,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 20,9 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,1 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 3 486,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,3 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 113,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 549,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,9 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 123,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 308,4 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Asosiy faoliyati bu – xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan kreking va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalash. Shuningdek etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, shu bilan birgalikda neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 39,4 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,3 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 6 563,0 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 101,9 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 142,0 mlrd. so'm kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblardan uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 118,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, shahar va tumanlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 659,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-iyun oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 87,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 99,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektr energiya, mln. kVt.s	1 007,6	881,3	- 126,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	431,0	427,0	- 4,0





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, shahar va tumanlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 154,2 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % iga) to'g'ri keldi.



*Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*




mlrd. so'mda *FHI, % da*

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 57,2 % ga ko'payishi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,1 % ga ko'payishi kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	9 685,4	15 228,2	5 542,8
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	195,2	199,4	4,2





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 420,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,5 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 36,6 % ni tashkil etgan.



*Kichik tadbirkorlik subyektlarining
jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi*



Olot	95,1
280,0	
Shofirkon	91,6
454,9	
Jondor	88,5
618,7	
Vobkent	78,8
467,9	
Kogon	75,2
770,3	
Kogon sh.	66,4
364,4	
Buxoro sh.	59,1
1 187,5	
Qorakoʻl	57,2
407,1	
Peshku	56,7
264,5	
Buxoro	53,4
294,0	
Gʻijduvon	47,6
713,8	
Romitan	37,7
334,6	
Qorovulbozor	3,8
262,5	

Navoiy

● mlrd. soʻmda

Ulushi, % da

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 155 ta loyiha bo'yicha 3 253,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 11,6 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 399 ta yangi ish o'rinlari yaratildi

